

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI DOIM QONUN HIMOYASIDA

Sattarov Mashrabjon Akramjon o`g`li

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya yo`nalishi 3-108 guruh talabasi

Xolboyev Umarjon Faxriddin o`g`li

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya yo`nalishi 3-108 guruh talabasi

Eshtemirova Elmira Abdumurod qizi

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya yo`nalishi 3-108 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” yuzasida o`z fikrlarimni bayon qildim. Nimaga aynan ushbu deklaratsiya qabul qilinganligi kabi ma`lumotlar keltirdim. Bizning Konstitutsiyamizda inson va fuqarolarning huquqlari ham himoya qilinadi. Konstitutsiyamizning ayrim moddalari bilan deklaratsiyaning ayrim moddalari o`xshashligiga guvoh bo`ldim.*

Kalit so`zlar: *deklaratsiya, huquq, erkinlik, davlat, qonun;*

Аннотация: *В этой статье я выразил свои мысли по поводу «Всеобщей декларации прав человека». Я дал информацию о том, почему именно была принята эта декларация. Наша Конституция также защищает права людей и граждан. Я был свидетелем сходства некоторых статей нашей конституции и некоторых статей декларации.*

Ключевая слова: *декларация, верно, свобода, состояние, закон;*

Annotation: *In this article, I expressed my thoughts on the "Universal Declaration of Human Rights". I gave information about why exactly this declaration was accepted. Our Constitution also protects the rights of people and citizens. I witnessed the similarity between some articles of our constitution and some articles of the declaration.*

Key words: *declaration, right, freedom, state, law;*

KIRISH

Hozirda dunyoda ko`plab davlatlar faoliyat olib boradi. Ularning har biri o`z fuqarolariga ega. Davlatlar har qanday vaziyatda fuqarolarining huquqlarini himoya qilish uchun qonunlar ishlab chiqqan va zamon rivojlangan sari yangidan yangi qonunlar ishlab chiqarmoqda. Umuman olganda inson, fuqaro, shaxs atamalari bir ma`noni anglatib bir-biriga sinonim tarzida qo`llaniladi. Insonlar har doim qonun oldida tengdirlar. Qonunlar aslida insonlarga ko`maklashish uchun ishlab chiqilishi kerak. Insonlar, fuqarolar qaysi davlatning fuqarosi bo`lishidan qat`i nazar bir xil huquqga ega bo`lishi lozim. Shu o`rindan erkinlik so`zini ta`riflab ketishimiz lozim. Erkinlik – bu kishining o`z istagi bo`yicha ish tutishidir.

Erkinlik tushunchasi huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika, estetika kabi ijtimoiy bilim sohalarida keng ishlatiladi. Masalan, vijdon erkinligi, soʻz erkinligi, matbuot erkinligi va hokazo. Erkinlik — boshboshdoqlikni emas, jamiyatdagi muayyan tartibni ifodalaydi. Erkinlik insonning jamiyat oldidagi vazifani bajarishni erkin, ixtiyoriy tanlashidir. Erkinlik insonning siyosiy, maʼnaviy taʼqibdan, zoʻravonlikdan himoyalanganligini bildiradi. Erkinlik oʻz baxtini oʻzi yaratish vositasi boʻlib, insonning oʻzligini anglash darajasini ifodalaydi.⁵⁰

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Butun jahonda inson huquq va erkinliklari kafolatlash va himoya qilish maqsadida “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilingan. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hozirda 350dan ortiq tillarga tarjima qilingan. Deklaratsiya 30ta moddadan iborat. Nimaga aynan inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha butunjahon deklaratsiya qabul qilingan. Bu haqida deklaratsiyaning Muqaddimasida keltirilgan. Unda inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar soʻz erkinligi va eʼtiqod erkinligiga ega boʻladigan hamda qoʻrquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish, inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini eʼtiborga olib, barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim boʻlgan vazifa sifatida ayni Deklaratsiya ishlab chiqilgani taʼkidlangan.⁵¹

Natsistlar Germaniyasining Ikkinchi jahon urushi bilan bogʻliq vahshiyliklari jamoatchilikka maʼlum boʻlgach, BMT Nizomida inson huquqlarini yetarlicha aniq belgilanmaganligi, hali himoya qilinishi lozim boʻlgan jihatlar juda koʻpligi ayon boʻldi.⁵² Shuni taʼkidlash kerakki, BMT Nizomida "inson huquqlarini himoya qilish" kabi atamalar ishlatilmagan, faqat "inson huquqlariga hurmatni ragʻbatlantirish va rivojlantirish" jumlasigina qoʻllangan. Ushbu holatda shaxsning huquqlarini batafsil sanab oʻtadigan va tavsiflaydigan umumjahoniy bir hujjat zarur edi. Shu maʼnoda, Deklaratsiyani Ikkinchi jahon urushi davomida sodir boʻlgan vahshiyliklarga xalqaro hamjamiyatning javobi sifatida tushunish mumkin. Dunyoning yarmi vayronaga aylangan, millionlab odamlar, halok boʻlgan, insoniyat hayoti izdan chiqqan oʻsha davrda Deklaratsiya bunday dahshatli harakatlarning takrorlanishiga hech qachon yoʻl qoʻymaslik uchun xalqaro majburiyatni belgilab berdi.⁵³ Shu tarzda bir necha vaqtdan soʻng boshqa davlatlar ham ushbu deklaratsiya maqullay boshladi. Shuning ularning ichidan Oʻzbekiston ham joy olgan.

⁵⁰ www.wikipedia.org

⁵¹ <http://advice.uz>

⁵² <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m10976>

⁵³ <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m10976>

BMT Bosh kotibi Antonio Gutterish Xalqaro inson huquqlari kuni munosabati bilan yo'llagan murojaatida barcha davlatlarni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganliging 75 yilligi munosabati bilan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faol harakatlarni amalga oshirishga, ushbu sohada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga chaqirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham deklaratsiya qabul qilinganligining 75 yilligi keng nishonlash bo'yicha o'z Farmonini qabul qildi. Prezidentimizning Farmonida bir nechta masalalar keltirib o'tildi. Shulardan misol qiladigan bo'lsak, Milliy komissiya va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2023-yildan boshlab har yili 1 — 10-dekabr kunlari mamlakatimizda "Inson huquqlari" o'n kunligini e'lon qilish hamda barcha umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlangan umummilliy dars o'tkazish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosiy maqsadlarini amalda ro'yobga chiqarishda BMT sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi maxsus jamg'armasiga O'zbekistonning ixtiyoriy badali sifatida yuz ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratsin.⁵⁴ Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturining amalga oshirilishini har tomonlama yoritib borsin.⁵⁵ Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu ishlarni amalga oshirishda barcha tashkilotlar birday jalb qilinishi, hattoki, barcha ta'lim muassasalari ham ishtirok etishi keltirib o'tilgan.

Bizning mamlakatimizda ham inson huquq va erkinliklari kafolatlagan, qonunlar bilan himoya qilinadi. Hattoki, yurtimizda boshqa xalq va elatlarning huquqlari ham hurmat qilinadi. Fuqarolar o'z huquqlaridan erkin tarzda foydalaniladi. Erkinlik har bir inson o'zi hohlaganday hayot kechirishi, hohlagan mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi, hohlagan diniga e'tiqod qilishi kabilarni misol qilishimiz mumkin. Mamlakatimiz inson huquqlarini tartibga solishda qonunlar kodekslar ishlab chiqqan. Ulardan eng asosiysi, bosh Qomusimiz bo'lgan Konstitutsiya hisoblanadi. Konstitutsiyamizda ham inson huquqlariga, erkinliklariga oid moddalar kiritilgan. Konstitutsiyamizning II- bo'limi Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari deb belgilab qo'yilgan. Albatta, bu yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz hisoblanadi.⁵⁶ Ushbu bo'lim o'z ichiga 19,21-moddalarni o'z ichiga oladi. 19-moddada keltirilishicha "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va

⁵⁴ PF-70-son, 2023-yil 12-may, Toshkent sh;

⁵⁵ PF-70-son, 2023-yil 12-may, Toshkent sh;

⁵⁶ O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasi (yangi tahrir) T: 2023: 12-bet

kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tugʻilganidan boshlab beriladi.” Yuqorida keltirganimizdek, deklaratsiya 30ta moddadan iborat va ayrim qismlarini bizning Konstitutsiyada uchratishimiz mumkin. Misol keltiradigan boʻlsak, ushbu deklaratsiyaning 26-moddasida har bir inson taʼlim olish huquqiga ega. Taʼlim olishda hech boʻlmaganda boshlangʻich va umumiy taʼlim tekin boʻlishi lozim. Boshlangʻich taʼlim majburiy boʻlishi kerak. Texnik va hunar taʼlimi hammaning qurbi etadigan darajada boʻlishi, oliy taʼlim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun etarli imkoniyat doirasida boʻlmogʻi kerak. Taʼlim inson shaxsini toʻla barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmogʻi lozim. Taʼlim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar oʻrtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va doʻstlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak. Kichik yoshdagi bolalari uchun ota-onalar taʼlim turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadir.⁵⁷ Deklaratsiyaning ushbu moddasida keltirilgan huquqlar 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan Konstitutsiyamizning 50-moddasida keltirib oʻtilgan. Bundan kelib chiqadiki, bizning Konstitutsiyamiz ham jahon andozalaridan olinganligiga yaqqol misol boʻladi.

NATIJA

Oʻzbekistonda insonlarning huquqlarini taʼminlash maqsadida bir nechta tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ularga misol qiladigan boʻlsak, sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar va ombudsman organlarini misol qilishimiz mumkin. Bular ham maʼlum bir maʼnoda insonga huquq va erkinliklar beradi. Adliya organi insonlarga huquqiy jihatdan koʻmaklashadi va ularning buzilgan huquqlarini himoya qiladi. Yana bir institut bu Ombudusman hisoblanadi. Ombudsman soʻzi - bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda «inson huquqlarini himoya qiluvchi» sifatida tushuniladi. Bu soʻz shved tilidan olingan boʻlib “vakil” degan maʼnoni anglatadi. U eng avval shved qiroli huzurida faoliyat yuritgan. Keyinchalik parlament shakllangandan soʻng 1809 yildan Parlament huzuriga koʻchgan.⁵⁸ Oliy Majlisning Inson huquqlari buyicha vakili (Ombudsman) instituti 1995 yilda tashkil etilgan. Ushbu institut MDH hududida birinchilardan boʻlib Oʻzbekistonda taʼsis etilgan. Hozirda ham bu instituti oʻz faoliyatini olib bormaqda fuqarolarga koʻmaklashmoqda. Sud tizimiga nazar soladigan boʻlsak, “Sudlar toʻgʻrisidagi” Qonunining 11-moddasida ham keltirilgan. Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy hamda ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, qonun va sud oldida tengdir.⁵⁹ Ushbu moddadan koʻrinib turibdiki, sud hamma fuqaroning ishlarini bir xilda koʻradi va ularning huquqlarini himoya qiladi, odilona qaror qabul qiladi.

⁵⁷ <http://www.ohchr.org>

⁵⁸ <https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>

⁵⁹ Oʻzbekiston Respublikasining Sudlar toʻgʻrisidagi Qonuni; T:2022; 7-bet;

MUHOKAMA

Mening taklifim shundan iboratki, bularning oldini olish uchun yangi qonunlar chiqarish va amalga kiritish lozim. Ba`zida insonlarning huquqiy ongi pastligi, ularning huquqlarining buzilishiga olib keladi. Bularning oldini olish maqsadida huquqiy tadbirlarning ko`paytirishimiz, bevosita aholining ichiga kirib tushuntirishlar berishimiz lozim. Ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy ko`rsatuvlar tashkil etish kerak. Aholimiz hozirda televizor orqali faqat serial ko`rish bilan band bo`lib qolmoqda, seriallarni qisqartirib yangi chiqqan qonunlarni tahlil qilib ko`rsatuv qilsak ham maqsadga muvofiq deb o`ylayman. Maktablarda huquq darslarini ko`paytirib, ularning huquqlarini yoshligidan talab qilishni, huquqlarini himoya qilishni, avvalo, boshqalarning huquqlarini va qonunlarni buzmalikni o`rgatishimiz lozim. Shu jarayonlarni tashkillasak, maqsadga muvofiq deb o`ylayman. Masalan, fuqarolar o`z huquqlarini himoya qilishda advokatlardan ham foydalanadi. Bunda ko`p vaqtlarda pullik xizmat bo`ladi. Agar fuqaroning moddiy jihatdan ahvoli yaxshi bo`lmasa, unga ko`mak berish lozim, yoki yuridik klinikaga tashrif buyurishini tushuntirish kerak. Shu bizning institutda ham yuridik klinika faoliyati olib boriladi va shu paytgacha bir nechta fuqarolarning masalalarini hal qilib berilmoqda. Fuqarolarning tashrif buyurishini so`rab qolardik.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo`lsam, har bir insonning huquqlari paymol qilinmasligi lozim. Lekin, ko`plab qonun hujjatlariga qaramasdan insonlarning huquqlari buzilishiga duch kelmoqdamiz. Hozir ham ayrim qonunlarga amal qilmaslik holatlari, fuqarolar tengligini buzish, korrupsiya holatlari kuzatilmoqda. Ayrim organlar o`zlariga berilgan vakolatlarni bajarmasdan, qonun buzilishlariga yo`l qo`ymoqda.

ADABIYOTLAR RO`YXATI / REFERENCES

WEBSAYT

1. www.wikipediya.org
2. <http://advice.uz>
3. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m10976>
4. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m10976>

FARMON

5. PF-70-son, 2023-yil 12-may, Toshkent sh;
6. PF-70-son, 2023-yil 12-may, Toshkent sh;

KITOBLAR

7. O`zbekiston Respublika Konstitutsiyasi (yangi tahrir) T: 2023: 12-bet

WEBSAYT

8. <http://www.ohchr.org>
9. <https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>

QONUN

10. O`zbekiston Respublikasining Sudlar to`g`risidagi Qonuni; T:2022; 7-bet;